

SUDYALARGA HAMDA SUDYALIKKA NOMZODLARGA QO'YILADIGAN TALABLAR BENUQSON OBRO'-E'TIBOR TALABINING DOLZARBLIGI

Ro'ziqulov Xurshid

Umarov Ulug'bek

Toshkent davlat yuridik universiteti Biznes huquqi va sud himoyasi fakulteti talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida hamda uning yurisdiksiyasidagi sudyalik lavozimlariga nomzodlarga qo'yiladigan talablar tahlil qilinib, bu borada "benuqson obro'-e'tibor" talabining sudyalik faoliyatida qanchalik muhim ahamiyatga ega ekanligi hamda dolzarbligi masalalari muhokama qilinadi. Bundan tashqari mamlakat qonunchiligi hamda tarixiy an'analaridan kelib chiqqan holda hisobga olinishi mumkin bo'lgan faktlar, odob-axloq va urf-odat normalari chuqur ilmiy yondashgan holda tahlil qilinib chiqarilgan xulosalar asosida amaldagi qonun hamda qonunchilik hujjatlariga o'zgartirish kiritish bo'yicha zarur taklif va ko'rsatmalar berildi.

Annotation: This article analyzes the requirements for candidates for judicial positions in the Republic of Uzbekistan and its jurisdiction, discusses the importance and relevance of the requirement of "impeccable reputation" in judicial activity. In addition, the necessary proposals and instructions for amending the current law and legislative acts are given based on the conclusions drawn from the country's legislation and historical traditions, based on a deep scientific analysis of the facts, norms of morality and customs that can be taken into account.

Аннотация: В данной статье анализируются требования к кандидатам на судебные должности в Республике Узбекистан и ее юрисдикции, обсуждается важность и актуальность требования «безупречной репутации» в судебной деятельности. Кроме того, на основе выводов, сделанных из законодательства страны и исторических традиций, а также на основе глубокого научного анализа фактов, норм морали и обычаев, которые могут быть приняты во внимание, приводятся необходимые предложения и указания по внесению изменений в действующее законодательство и законодательные акты.

KIRISH

Sudya lavozimida ishlash juda faxrli vazifa hisoblanadi. Juda ko'pchilik yurispredensiya yo'nalishi bitiruvchilari odatda kelajakda sudya lavozimida ishlashni o'z oldiga maqsad qilib olishadi. Bu qarashlar tabiiy albatta. Zero, "general bo'lishni orzu qilmagan askar-askar bo'lmagani singari, sudya bo'lishni orzu qilmagan yurist haqiqiy yurist hisoblanmaydi". Lekin, ushbu orzuga yetishish uchun qonunchiligimizda ma'lum bir



talablar va mezonlar mavjud ekanligidan ularning (yosh talabalar) ko'pchiligini xabari bor albatta. Biroq ularning ko'pchiligi ushbu talablarning qanday ma'no aks ettirishi, sudyalik lavozimida kelgusida qanday ahamiyat kasb etishini anglashmaydi yoki tasavvur qila olishmaydi. Sudyalik lavozimiga qo'yiladigan talablar O'zbekiston Respublikasining "Sudlar to'g'risidagi qonunning 67- moddasi 1- qismida aytib o'tilgan bo'lib, ularni quyidagilar tashkil etadi: 1) 35 yoshga to'lganlik, 2) oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lish 3) O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lish 4) qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa talablar hisoblanadi. Biz ushbu talablarning tahlilini muhokama qismida to'liq tartibda tahlil qilib o'tamiz. Sudyalik lavozimiga qo'yiladigan talablarni amaldagi qonun hamda qonunchilik normalari orqali tahlil qilar ekanmiz, bu borada ajdodlarimizdan qolgan tarixiy merosga, shu jumladan xalqimizning 3000 yildan ziyod vaqtdan beri saqlanib kelayotgan odob – axloq hamda urf – odat normalariga ham e'tibor qaratishimiz kerak. Uzoq yillik tariximiz hamda amaldagi qonun hujjatlarimizda mustahkamlab qo'yilgan, kelajakda sudya bo'lishni orzu qilgan har bir yosh bilishi kerak bo'lgan sudyalarga qo'yiladigan odob-axloq qoidalari xususan hozirgacha dolzarb masala hisoblangan benuqson obro' e'tibor axloqiy talabini chuqur tahlil qilish hamda uning asl ma'nosini tushib yetish bo'lajak har bir yuristning majburiyatidir.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Sudyalik lavozimiga nomzodlarga qo'yiladigan talablar masalasi yuridik fanlar doirasida keng tadqiq etilgan. M.Fayziyev ta'kidlaganidek, sud hokimiyatining mustaqilligini ta'minlashda sudyalarga qo'yiladigan malakaviy talablar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.¹⁷ Xalqaro tajribada ushbu talablar ikki guruhga — formal (rasmiy) va moddiy (mazmuniy) talablarga bo'linadi. O'zbekiston qonunchiligida sudyalik uchun 35 yosh chegarasi belgilangan. Qiyosiy-huquqiy tahlil shuni ko'rsatadiki, ko'plab davlatlarda yosh talabi turlicha: Germaniyada 25 yosh, AQShda federal sudyalar uchun yosh chegarasi belgilanmagan, Fransiyada esa 28 yosh talab etiladi. Bundan tashqari taniqli huquqshunos Ziyodullayevning fikricha yosh talabining yuqori belgilanishi hayotiy tajriba va kasbiy yetuklikni ta'minlashga qaratilgani hisoblanadi.¹⁸ Barcha huquqiy tizimlarda sudyalardan oliy yuridik ma'lumot talab etiladi. O'zbekiston misolida olib qaraydigan bo'lsak taniqli huquqshunos olim N.Odilqoriyev sudyalik lavozimiga tayinlash jarayonida amaliy tajribaning kam e'tiborga olinishini tanqid qilgan.¹⁹ Sudyaning o'z davlati fuqarosi bo'lishi — davlat suverenitetining ajralmas qismi sifatida deyarli barcha mamlakatlarning huquqiy tizimlarda qo'llaniladigan universal talablardan biri hisoblanadi. Bu talab

¹⁷ Fayziyev, M.M. "Sud hokimiyati mustaqilligini ta'minlashning huquqiy asoslari." Yuridik fanlar axborotnomasi (O'zbekiston), 2019, №3, 45–52 betlar

¹⁸ Ziyodullayev, M. "Sudyalik lavozimiga qo'yiladigan yosh talabining qiyosiy-huquqiy tahlili." O'zbekiston yuridik fanlari, 2021, №1, 33–39 betlar.

¹⁹ Odilqoriyev, N.T. "Sudyalarni tanlash va tayinlash tartibini takomillashtirish masalalari." Huquq va burch (O'zbekiston), 2020, №2, 18–24 betlar.



sudyaning milliy qonunchilikka sodiqligini va davlat manfaatlarini himoya qilishini kafolatlashga xizmat qiladi. Sudyalik lavozimida axloqiy mezonlar alohida o'rin tutadi. BMTning "Sudyalar mustaqilligi asosiy tamoyillari" (1985) hujjatida sudyaning benuqson obro'ga ega bo'lishi mustaqillikning zaruriy sharti sifatida belgilangan.²⁰

Tarixiy nuqtai nazardan, Movarounnahr faqihlari ham qozi (sudya)ga nisbatan yuqori axloqiy talablarni qo'ygan. Burhoniddin Marginoniy "Hidoya" asarida qozining adolatli, ilmi va taqvodor bo'lishi zarurligini ta'kidlagan.²¹ Bu an'ana bugungi kunda O'zbekiston sudyalariga qo'yiladigan "benuqson obro'" talabida o'z aksini topmoqda. Mavjud tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, sudyalik lavozimiga qo'yiladigan talablarning nazariy asoslari yetarlicha o'rganilgan bo'lsa-da, ushbu talablarning amaliy qo'llanilishi, xususan benuqson obro' mezonining baholash mexanizmlari kam tadqiq etilgan. Shuningdek, milliy tarixiy-huquqiy meros bilan zamonaviy talablar o'rtasidagi bog'liqlik masalasi chuqur ilmiy tahlilni talab qiladi. Ayniqsa benuqson obro' e'tibor masalasiga chuqur yondashish kerak, afsuski qonunchilik hujjatlarimizda bu haqda hech qanday to'liq ma'lumot yo'q.

METODOLOGIYA

Ushbu maqolada sudyalik lavozimiga nomzodlarga hamda sudyalarga qo'yiladigan talablar yuridik, ijtimoiy, axloqiy hamda tarixiy yondashuvlar orqali o'rganildi. Ishda asosan qiyosiy – huquqiy va tahliliy yondashuv usullari qo'llanildi. Yuridik jihatdan tahlil jarayonida amaldagi qonun hamda qonunchilik normalari asosida mulohazalar yuritildi. Tarixiy yondashuv qismida Temuriylar davlati hamda “ Uch Xonlik” davridagi sud hokimiyati tizimi amaldagi normalar bilan qiyosiy va huquqiy solishtirildi. Tadqiqot davomida O'zbekistonning “sudlar” tog'risidagi qonunchilik hujjatlari – “ Sudlar to'g'risida” gi qonun, “ sudyalar odob – axloq kodeksi”, Sudyalar oliy engashi to'g'risidagi qonun va sudyalar assotsiyatsiyasi to'g'risidagi nizom asosiy manbalar sifatida o'rganildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Sudya hamda sudyalik lavozimiga nomzodlarga qo'yiladigan talablar haqida gapirar ekanmiz, eng avvalo sud hamda sudyalik tushunchalarini ta'riflab o'tish maqsadga muvofiqdir. Yuridik sohada ishlovchi, ta'lim oluvchi har qanday shaxsga ma'lumki O'zbekistonda davlat hokimiyati bo'linish prinsipiga asosan 3turga bo'linadi. Bular qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi hamda sud hokimiyati. Ushbu norma mamlakat qonunchiligining negizi hisoblanib, oliy qomusimizning II-moddasida mustahkamlab qo'yilgan. Shu o'rinda mavzudan chetlashmagan holda sud hokimiyati qismiga e'tiborni qaratsak. Bejizga sud hokimiyati alohida hokimiyat tizimi sifatida konstitutsiyada belgilab qo'yilmagan. Buning tagida chuqur normative, yuridik asoslar bor. Sud hokimiyatini alohida hokimiyat tizimi

²⁰ BMT Bosh Assambleyasi. "Sudyalar mustaqilligining asosiy tamoyillari" (Basic Principles on the Independence of the Judiciary). 1985 yil 29 noyabr, 40/32 va 40/146-sonli rezolyutsiyalar. <https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/basic-principles-independence-judiciary>

²¹ Marginoniy, Burhoniddin. Hidoya: sharh Bidoyat al-mubtadiy. Toshkent: "Adolat" nashriyoti, 2000 (XII asr asli). 4 jildlik. Tarjima: A. Shamsutdinov.



sifatida e'tirof etishdan asosiy maqsad mamlakat hududida odil sudlovni amalga oshirishda sudlar mustaqilligini ta'minlash, yuksak sud-huquq islohtini amalga oshirishda kelajak uchun yuridik poydevor yaratish hisoblanadi. Sud hokimiyati alohida bir hokimiyat sifatida talqin qilinar ekan demak ushbu organda faoliyat olib boruvchi shaxslar "sudya"larga ham ularning yuksak maqomiga yarasha ma'lum bir talablar belgilab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasining 703-sonli "Sudlar to'g'risida"gi qonuni 67-moddasi 1-qismida sudyalik lavozimiga nomzodlarga quyidagi talablar qo'yilgan: 1) O'ttiz besh yoshga to'lganlik, 2) oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lish hamda 3) O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi. Bundan tashqari "Sudyalarning odob-axloq kodeksining 2-moddasida Sudyaning xulq-atvoriga doir umumiy talablar belgilab qo'yilgan bo'lib ularni quyidagilar tashkil etadi: 1) sudya harqanday vaziyatda ham qonun talablariga bo'ysunishi, 2) adolatli va haqiqatparvar bo'lishi, 3) xolislik va beg'arazlik tamoyillariga amal qilishi, 4) o'zining shaxsiy simpatiya hamda empatiyasidan ustun turishi, 5) sud hokimiyatining mavqeyiga zarar yetkazadigan yoki obro'sizlantiradigan harqanday xulq-atvordan tiyilishi va h.k. Shuningdek ushbu kodeksning 13-15-moddalarida ham sudyalarga doir ma'lum bir qat'iy talablar belgilab qo'yilgan bo'lib ularni quyidagilar tashkil qiladi" 13-modda: 1) Sudya xizmatdan tashqari vaqtda jamiyatda umume'tirof etilgan odob-axloq qoidalariga qat'iy rioya etishi,

2) jamoatchilik bilan munosabatda kamtar va bosiq bo'lishi, 3) kibrga berilmasligi,

4) sudya ekanligini zaruratsiz bildirishdan tiyilishi lozim. 5) Sudya siyosiy va diniy mazmunga ega miting va namoyishlar shaklidagi ommaviy tadbirlarda ishtirok etmasligi kerak.

6) Sudya jamiyatning boshqa ishtirokchilari bilan munosabatda sudning nufuzi, sudyalik sha'niga putur yetkazadigan va sudyaning jamiyatdagi yuksak maqomiga mos kelmaydigan muomala madaniyatidan, shuningdek ko'ngilochar tadbirlarda ishtirok etishda sudyaning nufuziga dog' tushiradigan xatti-harakatlardan o'zini tiyishi lozim.

7) Sudya muayyan sud ishi bo'yicha huquqiy maslahat berishga va o'z fikrini bildirishga, shuningdek sudda ko'rilgan yoki sud ish yurituvdagi ishlarni xizmatdan tashqari holatda muhokama qilishga haqli emas. 15-modda: 1) Sudya o'z majburiyatlarini bajarish chog'ida o'z diniy e'tiqodlarini namoyish qilish va targ'ib etishdan o'zini tiyishi shart.

2) Sudya o'zining tashqi ko'rinishi, kamtarligi va sipoligi bilan boshqalarga o'rnak bo'lishi lozim. 3) Sudya e'tiborni haddan tashqari jalb etadigan darajada taqinchoqlar va boshqa bezaklar taqmasligi, kiyinmasligi kerak.

4) Sudya o'z oila a'zolari, qarindoshlari va boshqa shaxslar tomonidan uning odil sudlovni amalga oshirish bilan bog'liq harakatlariga, shuningdek sud hujjatlarini qabul qilishiga ta'sir ko'rsatilishiga yo'l qo'ymasligi kerak.



5) Sudya, o'z oila a'zolarining umume'tirof etilgan odob-axloq normalariga rioya etishiga e'tiborli bo'lishi lozim."Endi yuqoridagi keltirilgan talablarni birma-bir muhokama qilsak. Avvalambor "Sudlar to'g'risidagi qonun"ga yuzlanamiz: Sudlar to'g'risida"gi Qonun, 67-moddasi 1-qismida sudyalik lavozimiga nomzodlarga qo'yilgan talablar va ularning ahamiyati haqida gaplashsak:

1. O'ttiz besh yoshga to'lganlik

Sudya lavozimi katta mas'uliyat va chuqur tajribani talab qiladi. Shu sababli, nomzodning yetarlicha hayot va ish tajribasiga ega bo'lishini ta'minlash maqsadida minimal yosh chegarasi belgilanadi. Bu talab sudyaning qarorlar qabul qilishda mas'uliyatli va yetuk bo'lishini kafolatlaydi hamda sud tizimida barqarorlik va adolatni saqlashga xizmat qiladi.

2. Oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lish

Sudya qonunlarni to'g'ri tushunishi, ularni amaliyotda adolatli va qonuniy tatbiq etishi zarur. Oliy yuridik ma'lumot sudyaga murakkab ishlarni baholash, huquqiy tahlil qilish va qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, bu talab sud qarorlarining sifatini oshiradi va fuqarolarning sud hokimiyatiga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi.

3. O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi

Sudya lavozimida davlat va fuqarolar manfaatlarini himoya qilish muhimdir. Nomzodning O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lishi talab qilinishi orqali sudya davlatning qonuniy tizimiga sodiq bo'lishi va milliy manfaatlarni hurmat qilishi kafolatlanadi. Bu esa sudyalarning qarorlarida davlat va jamiyat qonunchiligi asosida harakat qilinishini ta'minlaydi.

Endi "Sudyalarning odob-axloq kodeksi"idagi talablarga to'xtalsak.(2-modda.Umumiy talablar)

1. **Qonun talablariga bo'ysunish:**Sudya har qanday ish va vaziyatda faqat O'zbekiston Respublikasi qonunlari, xalqaro huquq normalari va sud amaliyoti tamoyillariga amal qilishi shart. Sudya shaxsiy qarashlari yoki tashqi bosim ostida qaror chiqarish huquqiga ega emas, barcha protsessual harakatlar qonuniylik asosida amalga oshiriladi.

2. **Adolatli va haqiqatparvar bo'lish:**Sudya qaror chiqarishda adolatni birinchi o'ringa qo'yishi lozim. Qarorlar qabul qilishda shikoyatchi yoki javobgar manfaati bo'yicha tarafkashlik qilmasligi, faqat dalillar va qonuniy asoslar bo'yicha xulosa chiqarishi zarur.

3. **Xolislik va beg'arazlik tamoyillariga amal qilish:**Sudya barcha tomonlarga teng munosabatda bo'lishi, shaxsiy manfaatlar, siyosiy yoki ijtimoiy bosimlardan xoli bo'lishi talab etiladi. Qarorlar har qanday tashqi ta'sirdan mustaqil va xolis bo'lishi kafolatlanadi.Ushbu talabning mavjudligi sud hokimiyati mustaqilligini ta'minlashda nihoyatda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.Sudya qaror qabul qilishda doimo xolis va beg'araz bo'lishi lozim.O'zining shaxsiy manfaatlari yo'lida,yoki sudlanayotgan shaxsga



nisbatan uzoq yillik shaxsiy adovati bo'lganligidan kelib chiqib qaror qabul qilishi mumkin emas.

4. **Shaxsiy simpatya va empatiyadan ustun turish:**Sudya o'z shaxsiy his-tuyg'ulari, simpatyasi yoki empatiyasini ish natijalariga ta'sir ko'rsatmasligini ta'minlashi lozim. Qonuniy qarorlar qabul qilish jarayonida faqat huquqiy normalar va yuridik asoslantirilgan faktlarga tayanishi shart.Misol uchun,sudda ishi ko'rilayotgan bir tomonning jismoniy jihatdan ojizligi yoki moliyaviy jihatdan qarshi tomonga nisbatan kuchsiz ekanligiga asoslanib bir tomonga qaror qabul qilishda yon bosishi qat'iy tanqizlanadi.

5. **Sud hokimiyatining mavqeyiga zarar yetkazadigan yoki obro'sizlantiradigan harakatlardan tiyilish:**Sudya o'zing yuksak xulq-atvori, so'z va harakatlari bilan sud hokimiyatining obro'sini himoya qilishi lozim. Shaxsiy yoki tashqi omillar natijasida sud tizimining mavqeyini pasaytiradigan, jamoatchilik ishonchini zaiflashtiradigan har qanday faoliyat sudya uchun noqonuniy va qabul qilinmas hisoblanadi.Bunga misol tariqasida sudyaning spirtli ichimliklar ichib transport vositasida harakatlanishini olsak bo'ladi.Ushbu harakat butunlayga sud hokimiyatining yuksak maqomiga jiddiy putur yetkazadigan holat hisoblanadi.

Navbat "Sudyalar odob-axloq kodeksida"gi 15-modda talablariga:

1. **Diniy e'tiqodlarni namoyish qilmaslik va targ'ib qilmaslik talabi:**Sudya ish jarayonida o'z diniy e'tiqodlarini ishga aralashtirmasligi shart. Bu talabga rioya qilinsa, qarorlar faqat qonuniy asosda va xolis tarzda qabul qilinadi.

Misol: Agar sudga ishda ma'lum bir diniy guruhga mansub shaxs bilan bog'liq ish kelib tushsa, sudya o'z e'tiqodiga ko'ra qaror chiqarish o'rniga faqat dalillar va qonun asosida ish yuritadi.

2. **Tashqi ko'rinish, kamtarlik va sipolik bilan o'rnak bo'lish talabi:**Sudya o'z tashqi ko'rinishi, kiyimi va xulq-atvori bilan jamiyatda ijobiy namuna ko'rsatishi lozim. Bu talab fuqarolar va boshqa sudyalarda oldida sudyaning nufuzini oshiradi.

Misol: Sudya majlisda oddiy, rasmiy kiyim kiyib, o'zini hurmat bilan tutadi va shaxsiy xohish-istaklarni ko'rsatmaydi, bu boshqa shaxslar uchun yaxshi o'rnak bo'ladi.Agarda sudya rasmiy sudyalik kiyimidan foydalanishning o'rniga o'ziga yoqqan "brend"ning kiyimlaridan kiyib sud majlisini olib boradigan bo'lsa,birinchiidan bu muayyan kompaniyaga nisbatan mulkiy manfaatdorlik asosida reklama qilish bo'lsa,ikkinchiidan o'zining qanday turdagi kiyimlarni yoqtirishini fuqarolarga ma'lum qilib qo'yadi.Bu orqali sudyaga natura ko'rinishida pora berish avj olishi mumkin.Misol uchun bir fuqaro sudya bilan uning ishin foydasiga hal qilishini kelishib oladi evaziga uning yoqtirgan soatini sovg'a qiladi.Sudya soat do'koniga boradi, bozor narxi100 ming dollar turgan soatni "aksiya"narxida 10 ming dollarga oladi.



3. **Haddan tashqari e'tibor jalb qiladigan taqinchoqlar va bezaklardan tiyilish talabi:** Sudya ishda kiyinish va bezak masalasida ham me'yoriy chegaraga amal qilishi kerak. Bu uning xolis va professional ko'rinishini ta'minlaydi.

Misol: Sudya katta zargarlik buyumlari yoki rang-barang kiyimlarda majlisga kelmaydi, shuningdek ish jarayonida e'tiborni o'zidan chalg'itadigan aksessuarlardan tiyiladi. Bu tamoyil fuqarolarda sudyaning qaror qabul qilishda muayyan shaxslarga nisbatan mulkiy jihatdan manfaatdor emasligiga bo'lgan ishonchni shakllantirishda muhim o'ringa ega.

4. **Oila a'zolari va qarindoshlarining odil sudlovga bo'lgab ta'sirini oldini olish va bunga yo'l qo'ymaslik talabi:** Sudya o'z qarorlarida va sud hujjatlarini qabul qilishda shaxsiy aloqalar, oila a'zolari yoki do'stlar ta'siriga yo'l qo'ymasligi shart. Agar sudyaga qarindoshi ish bilan bog'liq masaladagi da'vo arizasi kelib tushsa sudya o'z ishining ixtisosligi bo'yicha protsessual qonun normalariga muvofiq o'zini o'zi rad qilishi, yoki ishni boshqa sudyaga topshirishi shart.

Misol: Sudya o'zining farzandlari yoki boshqa yaqin qarindoshlari bilan bog'liq bo'lgan ishlarni ko'rib chiqishi mumkin emas. Agarda sudyaga o'zining farzandlari bilan bog'liq bo'lgan jinoyat ishi kelib tushsa ushbu vaziyatda sudya ish yurituvini boshqa sudyaga topshirishi yoki o'zini o'zi rad qilishi kerak.

5. **Oila a'zolarining odob-axloq normalariga rioya qilishiga e'tibor berish:** Sudya oila a'zolarining jamiyatda maqbul odob-axloq normalariga rioya qilishini nazorat qilishi va bunga e'tiborli bo'lishi lozim. Bu sudyaning obro'sini va jamiyatdagi hurmatini saqlashga yordam beradi. Aynan ushbu talab orqali biz yuqorida ta'kidlagan benuqson obro' e'tibor masalasi yotadi.

Misol: Sudya farzandlari yoki boshqa oila a'zolari jamiyatda yurish-turish qoidalariga amal qilishi. Sudyaning obro'siga hamda jamiyatdagi yuksak maqomiga putur yetkazadigan har qanday hatti-harakatdan tiyilishi kerak. Ya'ni sudyaning o'gli yoki qizi, xotini yoki eri, otasi yoki onasi qonun normalari bilan taqiqlangan harakatlarni sodir etmasligi (misol: narkotik moddalar muomilasi bilan shug'illanmaslik) lozim.

Endi maqolamizning asosiy mavzusi bo'lgan benuqson obro'- e'tibor masalasiga to'xtalsak. Qadimdan malumki, Temuriylar, Shayboniylar davrida qozilarning xalq orasidagi obro'-e'tibori nihoyatda yuqori bo'lgan. Temuriylar davrida qozi (sudya) shaxsiga qo'yilgan eng muhim talablardan biri — benuqson obro'-e'tiborga ega bo'lish edi. Bu talab oddiy axloqiy mezon emas, balki sud hokimiyatining legitimligi va jamiyatning davlatga ishonchini ta'minlovchi asosiy omil sifatida namoyon bo'lgan. Benuqson obro' tushunchasining mazmuni: Islom huquqiy an'analarida qozining "adl" (adolatli va pokiza shaxs) bo'lishi shart hisoblangan. Bu quyidagilarni anglatgan:

1) og'ir gunohlardan yiroq bo'lish;



- 2)poraxo'rlilik, yolg'onchilik, manfaatparastlikdan xoli bo'lish;
- 3)ijtimoiy hayotda nomunosib xatti-harakatlar qilmaslik;
- 4)so'z va amalda sobitqadamlik.

Shunday qilib, qozining obro'si uning faqat kasbiy bilimiga emas, balki shaxsiy axloqiy fazilatlariga ham bog'liq bo'lgan.

Temuriylar davrida sud hukmi nafaqat huquqiy, balki diniy majburiyat sifatida ham qabul qilingan. Agar qozi shubhali yoki obro'siz shaxs bo'lsa, uning hukmi jamiyat tomonidan e'tirozga uchrab, qabul qilinmasligi mumkin edi. Shu bois benuqson obro'-e'tibor:

- sud qarorlarining omma tomonidan qabul qilinishini ta'minlagan;
- nizolarning qayta qo'zg'alishini oldini olgan;
- davlat hamda sud hokimiyatining nufuzini mustahkamlagan.

Temur tuzuklarida mansabdor shaxslarning halolligi va pokligi alohida ta'kidlanishi sud tizimida ham axloqiy mezon ustuvor bo'lganini ko'rsatadi. Bundan tashqari Amir Temur boshqaruv siyosatida adolat markaziy o'rin egallagan. Nohaqlik yoki korrupsiya davlatni zaiflashtiruvchi omil sifatida baholangan. Shu sababli qozining obro'siga putur yetkazuvchi har qanday holat:

- kamida lavozimdan chetlatish;

- jamoat oldida obro'sizlantirish,(qozilar sazoyi qilinib,ho'kizga chalqancha o'tqizilib shahar bo'ylab sayr qildirilgan);

- hatto qatl qilish bilan yakunlanishi mumkin edi. Demak, benuqson obro'-e'tibor talabi nafaqat shaxsiy fazilat, balki davlat xavfsizligi va ijtimoiy barqarorlik bilan bog'liq siyosiy zarurat bo'lgan.

4. Ijtimoiy nazorat mexanizmi sifatida benuqson obro'-e'tibor:

Qozining obro'si xalq orasidagi hurmat bilan mustahkamlangan. Jamiyatda yaxshi nom qozonmagan shaxsning sudya etib tayinlanishi deyarli mumkin bo'lmagan. Bu o'ziga xos ijtimoiy filtr vazifasini bajargan. Natijada:

- 1)sud tizimi professional va ma'naviy jihatdan saralangan kadrlar bilan to'ldirilgan;
- 2)korrupsiyaviy xavf kamaygan;
- 3)fuqarolarning hukumatga bo'lgan ichonchi mustahkamlangan.

Yuqorida muhokama qilingan odob-axloq talablaridan kelib chiqib shunday deyishimiz mumkin:”Kishi sudyalikka da'vogar yoki sudya bo'larkan,eng avvalo o'zini sud qilishi kerak.To'g'ri qonunchiligimizda benuqson obro' e'tiborga hech qanday aniq bir ta'rif berilmagan,biroq ushbu talab sudyaning jamiyatdagi yuksak mavqesidan kelib chiqib belgilangan.Sudya,hakam,qozi va h.k,ular hammasi qaror qabul qilayotgan vaqtda kimningdir taqdirini hal qilib yuboradi,kimningdir zavoliga sababchi bo'lsa kimningdir “qayta tug'ilishi”ga sababchi bo'ladi.Agar sudyaning o'zi qoidabuzar,huquqbuzar



bo'lsa, jamiyatda yurish turish qoidalariga rioya qilmasa fuqarolar ongida unga nisbatan, hukumatga nisbatan ishonchsizlik paydo bo'ladi. Buning natijasida odil sudlovni amalga oshiruvchi sud hokimiyatining fundamental asoslari yemirilib davlat hokimiyatiga juda qattiq Zarar yetadi. Aynan shuning uchun ham sud hokimiyatining mustaqilligini, adolatli qarorlarni qabul qilishini ta'minlash maqsadida sudyalarga nisbatan juda qattiq odob-axloq talablari qo'yilgan. Sudya hukm qiluvchi sifatida o'zining yuksak axloqiy fazilatlarini hamda oilasining yuqori darajadagi ma'naviyati bilan butun xalqqa namuna bo'lishi kerak.

TAKLIFLAR

Sudyalar odob-axloq kodeksida sudyaga nisbatan ma'lum bir axloqiy me'yorlar o'rnatib qo'yilgan. Biroq ularning ko'pchiligi qonun yoki qonunchilik hujjati bilan mustahkamlab qo'yilmagan. Xuddi tavsiyaviy xarakterga egadek ko'rinib qolgan. Xususan benuqson obro' e'tibor masalasi ushbu jumlagacha hattoki ta'rif ham berilmagan. Shu sababli Sudlar to'g'risidagi qonunda alohida "sudyalarga qo'yiladigan talablar xususida bob" kiritish kerak. Bundan tashqari mamlakatimiz konstitutsiyasining 23-bobi (Sud hokimiyati) ga qo'shimcha moddalar kiritib, sudyalarning odob-axloq kodeksini konstitutsion darajada mustahkamlab qo'yish maqsadga muvofiq bo'ladi deb o'ylayman. Xo'sh normalarni qonun hamda konstitutsiyaga belgilab ham oldik, endi oldimizda ushbu qoidalarni buzganlik uchun davlat majburlov chorasi (sanksiyalar) qismi qoldi.

Ushbu qismni yaratish biroz muammoli, chunki bu orqali davlat hokimiyat organlari hamda kuch ishlatar tuzilmalariga sudning faoliyatiga aralashishga yo'l ochib berish xavfi turadi. Shuning uchun Sudlar to'g'risida alohida umumiy bir kodeksni ishlab chiqishni taklif qilaman.

Bu orqali sudlarning mustaqilligini hamda xolisligini ta'minlash mumkin deb o'ylayman. Biroq yangi qabul qilinadigan kodeksda sudyalar tomonidan yo'l qo'yilgan harqanday huquqbuzarlik sovuqqonlik bilan ko'rib chiqilib, jazodan qutulishni yoki jazoni yengillashtirishning deyarli imkoni bo'lmaydi.

Xuddi Shan Yan aytganidek "Qattiq jazo choralari qo'llash orqali, insonlar o'zlarida huquqning kuchini sinab ko'rishga jur'at etolmaydilar".

Zero shaxs, inson, individ yoki odam sudyalik qasamyodini qabul qilib o'z faoliyatiga kirisharkan, doimo qasamyodiga sodiq turishi, harqanday vaziyatda ham qonunga va faqat qonunga bo'ysungan holatda adolatli hamda xolis qaror qabul qilishi lozimdir.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, sud hokimiyatining mustaqilligi va xolisligi — davlat boshqaruvining poydevori hisoblanadi. Bu poydevorning mustahkamligi esa, avvalambor, uni tashkil etuvchi shaxslar — sudyalarning ma'naviy qiyofasiga bog'liq.



Zero, buyuk mutafakkir Alisher Navoiy ta'kidlaganidek, "Adolat — el boshiga toj, zulm esa — oyoq ostiga tosh." Sudyaning benuqson obro'-e'tibori — bu shunchaki huquqiy talab emas, balki jamiyat oldidagi muqaddas mas'uliyatning timsoli va adolat tojining eng yorqin gavharidir.

Zero, sudyalarning odob-axloq kodeksida nazarda tutilgan halollik, odillik, xolislik, kamtarlik, benuqson obro'-e'tiborga ega bo'lmagan sudyaning qarori keng omma oldida ahamiyatga ega bo'lmay qoladi. Fuqarolarning davlat hokimiyati, konstitutsiyaviy tuzumi hamda huquqiy tizimi haqidagi tasavvurlari tamomila salbiy tomonga o'zgarib, jamiyat va davlat o'rtasidagi ishochning yo'qolishiga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi <https://lex.uz/uz/docs/-6445145#-6446095>
2. Sudlar to'grisidagi qonu O'RQ-703 <https://lex.uz/uz/docs/-5534923>
3. Sudyalarning oliy kengashi to'risidagi qonun O'RQ-427 <https://lex.uz/uz/docs/-3153668>
4. Sudyalarning odob-axloq kodeksi
5. Fayziyev, M.M. "Sud hokimiyati mustaqilligini ta'minlashning huquqiy asoslari." Yuridik fanlar axborotnomasi (O'zbekiston), 2019, №3, 45–52 betlar
6. Ziyodullayev, M. "Sudyalik lavozimiga qo'yiladigan yosh talabining qiyosiy-huquqiy tahlili." O'zbekiston yuridik fanlari, 2021, №1, 33–39 betlar.
7. Odilqoriyev, N.T. "Sudyalarni tanlash va tayinlash tartibini takomillashtirish masalalari." Huquq va burch (O'zbekiston), 2020, №2, 18–24 betlar.
8. BMT Bosh Assambleyasi. "Sudyalarning mustaqilligining asosiy tamoyillari" (Basic Principles on the Independence of the Judiciary). 1985 yil 29 noyabr, 40/32 va 40/146-sonli rezolyutsiyalar. <https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/basic-principles-independence-judiciary>
9. Marginoniy, Burhoniddin. Hidoya: sharh Bidoyat al-mubtadiy. Toshkent: "Adolat" nashriyoti, 2000 (XII asr asli). 4 jildlik. Tarjima: A. Shamsutdinov.

